

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BEHUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02.
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

ALLAYAROV SHERALI SHAMSHIYEVICH

**BUSHUYEV ZOTLI NASLDOR-SPERMODONOR BUQALAR SPERMA
MAHSULDORLIGI VA ULARDAN OPTIMAL XO'JALIK FOYDALANISH
MUDDATLARINING ILMIY ASOSLARI**

**06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlari ishlab
chiqarish texnologiyasi**

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contens of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Allayarov Sherali Shamshiyevich

Bushuyev zotli nasldor-spermodonor buqalar sperma mahsuldorligi va ulardan optimal xo‘jalik foydalanish muddatlarining ilmiy asoslari.....3

Алляяров Шерали Шамшиевич

Спермопродуктивность племенных быков-спермодоноров бушуйевской породы и научные основы их оптимальных сроков хозяйственного пользования 25

Allayarov Sherali Shamshiyevich

Sperm productivity of breeding sperm donor bulls of the Bushuevskaya breed and scientific basis for their optimal terms of economic use 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

Last of published work 51

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVESITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02.
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

ALLAYAROV SHERALI SHAMSHIYEVICH

**BUSHUYEV ZOTLI NASLDOR-SPERMODONOR BUQALAR SPERMA
MAHSULDORLIGI VA ULARDAN OPTIMAL XO'JALIK FOYDALANISH
MUDDATLARINING ILMIY ASOSLARI**

**06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlari ishlab
chiqarish texnologiyasi**

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PHD/Qx1359 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent davlat agrar universiteti (www.tdau.uz.), Respublika ilmiy qishloq xo'jaligi kutubxonasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda «Ziyo-net» axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dosmuxamedova Muhayyo Husnitdinovna
qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turganbaev Ruzimbay Urazbaevich
qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

Kuchchiyev Oxunjon Razzoqovich
qishloq xo'jalik fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «17» 03 soat 17:00 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel: (99871) 260-48-00; faks: (99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz. Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 2-qavat majlislar zali)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№552092 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111801, Toshkent viloyati Qibray tumani, Universitet ko'chasi 2-uy., tel: (99870) 975-83-11, faks: (99870) 9758311).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «03» 03 kuni tarqatildi.
(2024-yil «17» dekabrda 10-raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.R.Umarov


Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi q.x.f.d., professor

Sh.A.Abdurasulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.n.

Q.J.Shakirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
q.x.f.d., professor



KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertasiya annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo qishloq xo'jaligining muhim yo'nalishidan hisoblangan chorvachilikda qoramolchilik asosiy tarmoqlardan biridir, ayniqsa, ishlab chiqarish amaliyotida zebusimon qoramollar genetik potentsiallaridan oqilona foydalangan holda yangi seleksion podalarni shakllantirish va ularni takomillashtirib borish tobora keng qo'llanilmoqda. Bu borada qoramolchilik rivojlanib borayotgan «...Braziliyada - san-paulo, Flippinda - filami, Yamaykada – ymayka houk zotlari, go'shtdor qoramolchilikda zebu asosida santa-gertruda, braford, brangus, bifmaster, charbrey, simbra»¹ kabi boshqa zotlari yaratilgan. Bugungi kunga kelib, ushbu zotlarning takomillashtirilgan podalarini to'laonli shakllantirish, ularni o'rnatilgan ratsionlar asosida parvarishlash, reproduktiv ko'rsatkichlarini yaxshilash, sut va go'sht mahsulotlarini oshirib borish jahon miqyosida dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Oxirgi yillarda chorvachilik rivojlangan yirik davlatlar seleksioner olimlari qoramolchilik seleksiyasida global tabiiy iqlim o'zgarishlaridan kelib chiqib, turli hududlar sharoitlariga mos zotlarni yaratish va ularni parvarishlashning yangi innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqmoqdalar. Qoramolchilik rivojlangan davlatlarda yangi yaratilgan zotlarni ko'paytirish, ularni nasldorlik xususiyatlarini doimiy nazoratda saqlash, buzoqlarni o'sish va rivojlanish jarayonlarini kuzatib turish borasida ilmiy asoslangan yangi agrotexnologiyalardan samarali foydalanilmoqda. Hozirgi davrda yaratilgan yangi zot va podalarning bosh sonini saqlab qolish, morfobiologik, sut va go'sht mahsuldorlik, reproduktiv ko'rsatkichlarini yuqori darajada bo'lishini ta'minlash yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish, qoramolchilik sohasidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, xorijdan xo'jalik qimmatli belgilari, ayniqsa, sut va go'sht mahsuldorligi yuqori zotlarni olib kelish va ularni mahalliyashtirish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. «...chorvachilikning barcha tarmoqlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, ilmiy-tadqiqot natijalari va innovatsion ishlanmalarni mahsulot ishlab chiqarish va naslchilik-seleksiya amaliyotiga joriy etish ishlarini yo'lga qo'yish»² dolzarb vazifa sifatida belgilab berilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, qoramol podalarini yaxshilashda nasldor buqalar sperma mahsuldorligini miqdor va sifat ko'rsatkichlari jihatidan yaxshilash, ularning yoshiga bog'liqlik xususiyatlarini hamda turli zotga mansub naslli buqalarning sperma mahsuldorligini yil fasllari va ma'lum bir yosh davrlari bo'yicha baholash asosida buqalarning o'sish va rivojlanishiga, shuningdek, xo'jalik qimmatli belgilarini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-fevral 2020-yildagi PQ-120-sonli «O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini

¹ <https://www.livisto.ru/livisto/species/cattle/cattle.html>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan ko'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturi tasdiqlash to'g'risida"gi va 2022-yil 28-avgustdagi 285-sonli «Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi hamda 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlarida hamda tarmoqqa tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika va fan texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Tadqiqotlar davomida nasldor buqalarning sperma mahsuldorligiga tashqi muhit harorati, namligi, yorug'lik, yoshining ta'siri, hamda bir zotga mansub buqalarning yosh davri va yil fasllari davomida o'zgarishi hamdo'stlik davlatlari va xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan amalga oshirilib, ijobiy natijalar olingan. Jumladan, Yu.V.Anbaza, L.N.Sharigina, Ye.V.Chetvertakova, L.V.Xalturina, N.V.Sidorova, N.A.Maligina, I.A.Drobot, V.A.Malenkix, V.S.Antonyuk, S.I.Serduk, V.A.Nauk, va boshqalarning, hamda qoramolchilik rivojlangan xorijiy mamlakatlardan R.G.Saacke, L.F.Brito, J.D.Arthington, E.M.Murphy, P.H.Ndama, L.R.McDowell, R.W.Godfrey, J.D.Arthington va boshqalarning ilmiy natijalarida o'z aksini topgan.

Shu bilan birgalikda, mamlakatimizda bushuev zotiga mansub qoramollarning sut va go'sht mahsuldorligini tadqiq etgan olimlar: M.M.Bushuyev, V.V.Zyuzyukin, A.A.Atbashyan, A.M.Mustafayev, M.Nortadjiyev, I.Z.Axmetov, Sh.A.Akmalxanov, U.N.Nosirov, B.J.Nosirov, S.S.Ibragimov, M.T.Usmanov, A.G.Avizov, M.E.Ashirov, M.X.Dosmuxamedova, N.R.Ro'ziboyev, Q.J.Shakirov, U.R.Soatov, B.Sh.Boybulov, X.A.G'iyasov, O.E.Mamatqulov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarini ham keltirish mumkin.

Ammo, nasldor buqalar sperma mahsuldorligining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini yil mavsumlari, yosh davrlariga bog'liq holda o'zgarishini, mahalliy, bir xil shart-sharoitlarda parvarishlangan bushuev va xorijiy nasldor buqalarning sperma mahsuldorligi bo'yicha zot xususiyatlarini aniqlash yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borishga etarlicha e'tibor qaratilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Toshkent davlat agrar universitetining QX-A-QX-2018-495 raqamli «Naslchilik korxonasi import qilingan yaxshilovchi zotlar buqalarini genotipi, shaxsiy xususiyatlari, sperma mahsuldorligi bo'yicha baholash va tanlash hamda sun'iy urug'lantirish tizimida foydalanish» mavzusidagi loyiha asosida bajarilgan (2018-2020 yy.).

Tadqiqotning maqsadi bushuev zotli nasldor-spermodonor buqalar sperma mahsuldorligi bo'yicha xususiyatlari va ulardan optimal xo'jalik foydalanish muddatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

import qilingan nasldor buqalar sperma mahsuldorligining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini yil fasllariga bog'liq holda, buqalarning rivoji va ekstereri belgilari bo'yicha bonitirovka qilish hamda klass toifasini aniqlash;

nasldor buqalarning yosh davrlariga bog'liq holda sperma mahsuldorlik ko'rsatkichlarini o'zgarishini aniqlash;

bushuev va xorijiy nasldor buqalarni bir xil saqlash, parvarishlash va oziqlantirish sharoitlarida sperma mahsuldorligini o'zgarishi bo'yicha zot xususiyatlarini o'rgangan holda, ularning o'sish va rivojlanishi, fiziologik ko'rsatkichlarini aniqlash;

bushuev zotli nasldor buqalarlardan yil fasllari va ma'lum bir yosh davri oralig'ida sperma mahsulotini olishning optimal muddatlarini ishlab chiqish;

O'zbekiston sharoitida nasldor spermodonor buqalardan urug' ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistonda yaratilgan bushuev, xorijdan import qilingan golshin, angler, shvis va simmental zotlariga mansub nasldor buqalar tanlab olindi.

Tadqiqotning predmeti mahalliy bushuev va turli xorijiy zotli nasldor buqalarning sperma mahsuldorligining miqdor va sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni bajarishda Hamdo'stlik davlatlarining Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash Davlatlararo Kengashi (MGS) ning 01.07.2015 yil, «Urchitish vositalari. Buqalarning yangi olingan, suyultirilmagan spermasi», GOST – 23745-2014 va muzlatilgan spermani baholashda 29.05.2015 yil, «Urchitish vositalari. Buqalarning chuqur muzlatilgan spermasi», GOST - 26030-2015-davlatlararo standarti texnik shartlariga asosan, qo'shimcha tadqiqotlarda esa umum qabul qilingan zootexniya tadqiqot usullaridan foydalanildi, shu jumladan, tirik vazni o'sishi S.Broudi usulida (1978), eksteryer ko'rsatkichlari va tana o'lchamlari N.A.Kravchenko (1963) usulida, umumiy gemotologik tahlil etishda eritrotsit va leykotsitlar Gorayev kamerasida, gemoglobin Sali gemometrida aniqlandi, iqtisodiy samaradorlik G.M.Loza va V.Y.Udovchenkolar (1980) usulida hisoblandi, tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlarga Mf Office, EXCEL dasturidan variatsion statistik (N.A.Ploxinskiy, 1969) qayta ishlash usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor O'zbekistonda bushuev va xorijiy zotlarga mansub nasldor buqalarning sperma mahsuldorlik ko'rsatkichlarini zotlar bo'yicha o'ziga xos xususiyatlari, ana'naviy usullarga nisbatan 45,2 ming doza yoki 24-26% ga ko'proq sperma ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjudligi aniqlangan;

bushuev zotli nasldor buqalarga motsion yuklamalarini belgilashda boshqa xorijiy buqa zotlariga nisbatan 10-15% ga ko'proq yuklama belgilash zaruriyati isbotlangan;

xorijiy zotli buqalarning eyakulyat yilning hajmi issiq mavsumlarida bahor fasliga nisbatan 0,5-0,7 ml yoki 19-30% ga pasayib, bushuev zotli buqalarda 0,1 ml yoki 15% atrofida, ya'ni, eng kam miqdorda kamayishi, hamda yil davomiga nisbatan barqaror saqlanib qolishi nazariy tomondan asoslangan;

bushuyev zotli nasldor buqalar xorijdan keltirilgan buqa zotlariga nisbatan 2-3 yil ko'proq, ya'ni har bir boshdan o'rtacha 25-35 ming doza yoki 110-118% ko'proq sperma olish mumkinligi aniqlangan;

mahalliy bushuyev zotli buqalar uchun 2-7 yoshlik davri, ya'ni, 5 yil xo'jalikda foydalanishning optimal muddati ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nasldor buqalarning yoshi va yil fasllari bo'yicha urug' mahsuldorlik ko'rsatkichlarini tadqiq etish natijalaridan kelib chiqib tashkil etilgan sperma ishlab chiqarish hajmi 22,2% ga, sifati 25% ga oshishiga erishilgan;

tadqiqot natijalari asosida mahalliy bushuyev zotli buqalardan urug' ishlab chiqarish hajmi 8-30 foizgacha oshishiga hamda mahsuldorligi yuqori, nasldor buqalar urug'idan seleksiya zahirasi yaratishga erishilgan;

nasldor buqalarning yoshi, yil fasllari va zot xususiyatlarini inobatga olgan holda xo'jaliklarda foydalanishning optimal muddatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqotlar zamonaviy innovatsion usullardan foydalangan holda olib borilganligi, natijalar Toshkent davlat agrar universiteti aprotatsiya komissiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari hamda birlamchi hujjatlar bo'yicha ijobiy baholanganligi, olingan materiallar matematik-statistik usullar bilan qayta ishlov berilganligi va ularning ishonchligi aniqlanganligi, tadqiqot natijalari ishlab chiqarishga joriy etilganligi hamda dalolatnomalar va ma'lumotnoma vakolatli davlat tuzilmasi tomonidan tasdiqlanganligi, olingan ilmiy natijalarni nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mahalliy bushuyev zotli qoramollarni saqlab qolish, ko'paytirish va takomillashtirishda yuqori mahsuldor buqalar spermasi olishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan, sperma mahsuldorlik bo'yicha o'ziga xos zot xususiyatlarini inobatga olgan holda yangi avlod xayotchanligi go'sht va sut mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etganligi bilan izohlanadi.

Ilmiy ishning amaliy ahamiyati ishda bayon etilgan tadqiqot natijalari, xulosa va takliflar asosida O'zbekiston sharoitida nasldor buqalardan optimal xo'jalik foydalanish muddatlarini belgilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda ko'rsatilgan, miqdor va sifat jihatdan maqsadga muvofiq sperma mahsuloti zahirasini yaratishni oqilona tashkil etishning iqtisodiy afzalliklari aks etganligi bilan baholanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bushuyev zotli nasldor-spermodonor buqalar sperma mahsuldorligi va ulardan optimal xo'jalik foydalanish muddatlarini ilmiy tahliliy asosida:

O'zbekistonda mahalliy bushuyev zotli va xorijdan import qilingan nasldor buqalarning yoshi va yil fasllari bo'yicha sperma mahsuldorlik ko'rsatkichlari Naslchilik ilmiy ishlab-chiqarish markazida joriy qilindi (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va Chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2024-yil 5-avgustdagi 02/23-1763-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sperma ishlab chiqarish

hajmi miqdor jihatidan o'rtacha 22,2% ga, sifati 25% ga, rentabellik darajasi 14,9% tashkil qiladi;

nasldor buqalarning yoshi, yil fasllari va boshqa zot xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ulardan sperma ishlab chiqarish bo'yicha tavsiyalar Naslchilik ilmiy ishlab-chiqarish markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi filialida joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va Chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2024 yil 5-avgustdagi 02/23-1763-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'rtacha yillik ishlab chiqarilgan sperma qiymati jami 121,2 mln. so'mni, yoki 126% ni, rentabellik darajasi 14,9% tashkil etgan;

Tadqiqot natijalari Respublikamizning ekologik og'ir sharoitida Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani «Turon-Ravnaq-Baraka» fermer xo'jaligida bevosita ishlab chiqarishga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va Chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2024 yil 5-avgustdagi 02/23-1763-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, xo'jalikda bushuyev zotli buqalar spermasi bilan urug'lantirish hajmi miqdor jihatidan avvalgi yillarga nisbatan o'rtacha 22,2% ga, sifati 25% ga oshib, sperma sarfi 12-15%ga kamaygan. Olingan sperma mahsulotining urug'lantirish darajasi 6-12% ga, rentabellik darajasi 14% ni tashkil qildi.

Ilmiy natijalar aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari bo'yicha 2 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola shundan, 9 tasi mahalliy va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, shuningdek, 2 ta qo'llanma, 1 ta patent, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlarida tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 109 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

KIRISH qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, adabiyotlar sharhi bayon etilgan, tadqiqotlarning material va uslublari ko'rsatilgan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati qayd qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etilishi, dissertatsiya natijalarini chop etish hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning «Adabiyotlar sharhi» deb nomlangan birinchi bobida nasldor buqalar parvarishlanayotgan muhitning eyakulyat hajmi va sifatiga ta'siri, sperma mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ozuqa ratsioni, oziqlantirish

darajasi va ozuqa tarkibidagi turli elementlarning ta'siri, sperma mahsuldorligining buqalar yoshiga bog'liq o'zgarishi, buqalar sperma mahsuldorligining tirik vazni, zoti va boshqa individual xususiyatlariga bog'liqligi kabi spermamahsuldorlikka ta'sir etuvchi omillarga oid adabiyotlar ma'lumotlari tahlil qilib chiqilgan. Bundan tashqari, qoramollarning bushuyev zoti, uni saqlab qolish, ko'paytirish va takomillashtirishda spermodonor buqalarning ahamiyati ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni amalga oshirgan ko'plab mualliflarning ilmiy natijalari umumlashtirilib, tegishli xulosalar chiqarilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi, «**Tadqiqot obyekti va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlarni o'tkazish joyi, tadqiqotlarda qo'llanilgan usul va uslublari ko'rsatilgan. Ushbu bobda tadqiqot ashyolari va uslublari, tajriba rejasi va unda ko'zda tutilgan tadbirlarning asoslanishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Nasldor buqalar sperma mahsuldorligining o'zgarishi**» deb nomlangan uchinchi bobida, tadqiqot davomida tajriba hayvonlarini oziqlantirish, saqlash va parvarishlash sharoitlari, sperma mahsuldorligining yil fasllari va yosh davrlari bo'yicha o'zgarishi, tajribadagi nasldor buqalar spermasining urug'lantirish darajasi, turli zotga mansub nasldor buqalar spermasining morfologik holati, nasldor-spermodonor buqalarning tirik vazni va tana o'lchamlarining o'zgarishi, tajribadagi nasldor buqalarning umumiy gemotologik va fiziologik ko'rsatkichlarining yil fasllari bo'yicha o'zgarishini tadqiq etish natijalari yoritilgan.

Bunda, sperma mahsuldorligining nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlari, balki, sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishi ham muhim ahamiyatga ega. Ba'zi hollarda esa, sperma konsentratsiyasi, harakatchan spermiylar miqdori va boshqa shu kabi ko'pchilik ko'rsatkichlar bir vaqtning o'zida ham miqdoriy, ham sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar asosiy ko'rsatkichlar bo'lib, ularning eng katta o'zgarishlari asosan yoshga bog'liq holda kechishi sababli avvalambor yosh davrlari bo'yicha kuzatildi.

Tadqiqotlar o'tkazilgan davr davomidagi o'rtacha ko'rsatkichlar bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki, yilning qish mavsumida (dekabr–yanvar) spermodonor sifatida foydalanilgan barcha nasldor buqalarning sperma mahsuldorlik ko'rsatkichlari barqaror ravishda ko'tarila borib, aprel oyida eng yuqori miqdorga yetishi aniqlandi (1-jadval).

Bu ko'rsatkichlar zotlar bo'yicha tahlil etilganda, tajriba davrining boshida, ya'ni, qish mavsumida barcha zotlarga mansub nasldor buqalarning eyakulyati hajmi nisbatan kam bo'lsada bushuyev zotiga mansub buqalar eyakulyatining o'rtacha hajmiga nisbatan faqat angler zotli buqalarga 1,0 ml yoki 1% foizga ko'proq bo'lib, golshtin, shvits, simmental zotli buqalarga nisbatan mos ravishda 11,0 ml yoki 10%, 3,1 ml yoki 3% va 8,5 ml yoki 8% ga kamroq bo'lgan. Ammo, qish mavsumida 1 ml spermadagi spermiylar konsentratsiyasi jihatidan xorijiy nasldor buqalar bilan bushuyev zotiga mansub mahalliy buqalar o'rtasida qariyb farq kuzatilmadi.

1-jadval

Tajribadagi nasldor buqalar sperma mahsuldorligining yil fasllari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlari (2022-2024 yy.)

Zotlar bo'yicha guruhlar		O'rtacha bir mavsumda bir boshdan jami sperma, ml *	1 ml spermada spermiylar konsentratsiyasi, mlrd/ml**	Mavsumlar bo'yicha 1 eyakulyatning o'rtacha hajmi, ml***
qishda (yanvar)				
I	Bushuyev	99,1±1,2	1.10±0,001	3,60±0,02
II	Golshtin	110,1±2,4	1,09±0,003	4,25±0,05
III	Angler	98,1±1,4	1,11±0,005	3,65±0,03
IV	Shvits	102,2±1,8	1,10±0,003	3,95±0,05
V	Simmenta	107,6±2,0	1,01±0,002	3,70±0,04
bahorda (may)				
I	Bushuyev	107,0±1,0	1,30±0,002	4,10±0,01
II	Golshtin	117,7±1,9	1,20±0,004	4,45±0,04
III	Angler	101,4±1,1	1,30±0,005	3,85±0,02
IV	Shvits	109,5±1,6	1,20±0,003	4,20±0,04
V	Simmental	117,9±1,8	1,10±0,006	4,50±0,04
yozda (iyul)				
I	Bushuyev	94,3±1,1	1,20±0,004	3,50±0,03
II	Golshtin	80,1±2,4	0,89±0,011	3,60±0,05
III	Angler	75,3±1,6	1,10±0,009	3,10±0,04
IV	Shvits	73,0±1,7	1,00±0,006	3,45±0,05
V	Simmental	78,6±1,9	1,00±0,010	3,15±0,06
kuzda (oktyabr)				
I	Bushuyev	98,2±1,0	1,20±0,004	3,45±0,02
II	Golshtin	90,1±1,8	1,10±0,005	4,05±0,04
III	Angler	86,1±1,3	1,20±0,006	3,15±0,03
IV	Shvits	82,1±1,6	1,01±0,006	3,50±0,04
V	Simmental	88,4±1,6	1,02±0,005	3,20±0,04

Eslatma: *P>0,95; ** P>0,99; ** P>0,999

Bahor mavsumining barcha hayvonlar reproduktiv funksiyasiga qonuniyatli ravishdagi ijobiy ta'siri natijasida esa nasldor buqalar eyakulyatlarining hajmi oshib, bu o'zgarish buqalarning tirik vazniga mos ravishdagi miqdorlarda, foiz hisobda esa taxminan bir xil o'rtacha 3-10%, spermiylar konsentratsiyasi esa 8-18% gacha oshganligi kuzatildi (2-jadval).

2-jadval

Bushuyev zotli buqalardan mavsumlar bo'yicha olingan sperma hajmining xorijiy zotlarga nisbatan farqlanishi (2022-2024 yy.)

Zotlar bo'yicha guruhlar		Xorijiy zotlarga nisbatan farqi		Xorijiy zotlarga nisbatan farqi	
		mi	%	mi	%
		qishda (yanvar)		bahorda (may)	
I	Golshtin	-11,0	90,0	-10,7	90,9
II	Angler	1,0	101,0	5,6	105,5
IV	Shvits	-3,1	97,0	-2,5	97,7
V	Simmental	-8,5	92,1	-10,9	90,8

2-jadval davomi

I	Golshtin	yozda (iyul)		kuzda (oktyabr)	
		14,2	117,7	8,1	109,0
II	Angler	6,7	107,6	12,1	114,1
IV	Shvits	21,3	129,2	16,1	119,6
V	Simmental	15,7	120,0	9,8	111,0

Keyinchalik esa, havo haroratining O'zbekistonga xos holda keskin ko'tarilishi, jazirama issiqning salbiy ta'siri oqibatida sperma mahsuldorlik ko'rsatkichlarining pasayishi kuzatildi.

Bu holat bushuyev zotli buqalarda eng kam - 12,7 ml yoki 11,9% gacha va eng ko'p simmental buqalarda - 39,3 ml yoki 33,3% gacha; o'rtacha 1 eyakulyatning hajmi bo'yicha esa golshtin zotli buqalarda 0,6 ml yoki 15,3% gacha, eng kam bushuyev zotida 0,10 ml yoki 2,8% gacha pasayishi kuzatildi (3-jadval).

3-jadval

Bushuyev zotli buqalardan mavsumlar bo'yicha 1 ml spermada spermialar konsratsiyasining xorijiy zotlarga nisbatan farqlanishi, mlrd/ml

Zotlar bo'yicha guruhlar	Xorijiy zotlarga nisbatan farqi		Xorijiy zotlarga nisbatan farqi	
	ml	%	ml	%
	qish (yanvar)	bahorda (may)	qish (yanvar)	qish (yanvar)
Golshtin	0,01	101	Golshtin	0,01
Angler	-0,01	99	Angler	-0,01
Shvits	0,00	100	Shvits	0,00
Simmental	0,09	109	Simmental	0,09
	yoz (iyul)	kuz (oktyabr)		yoz (iyul)
Golshtin	0,31	134	Golshtin	0,31
Angler	0,10	109	Angler	0,10
Shvits	0,20	120	Shvits	0,20
Simmental	0,20	120	Simmental	0,20

Bu holat ularning urug'lanish davri qariyb mavsumiy bo'lgan zebusimon aborigen qoramollar avlodi ekanligi sababli, tabiiy ravishda ko'payish funksiyalariga ijobiy ta'sir etadigan mavsum, ya'ni bahorga nisbatan ta'sirchan ekanligidan dalolat beradi (4-jadval).

4-jadval

Bushuyev zotli buqalardan mavsumlar bo'yicha olingan 1 eyakulyat o'rtacha hajmining xorijiy zotlarga nisbatan farqlanishi (2022-2024 yy.)

Zotlar bo'yicha guruhlar		Xorijiy zotlarga nisbatan farqi		Xorijiy zotlarga nisbatan farqi	
		ml	%	ml	%
		qish (yanvar)		bahor (may)	
I	Golshtin	-0,65	84,7	-0,35	92,1
II	Angler	-0,05	98,6	0,25	106,5
IV	Shvits	-0,35	91,1	-0,10	97,6
V	Simmental	-0,10	97,3	-0,40	91,1
		yoz (iyul)		kuz (oktyabr)	
I	Golshtin	-0,10	97,2	-0,60	85,2
II	Angler	0,40	112,9	0,30	109,5
IV	Shvits	0,05	101,4	-0,05	98,6
V	Simmental	0,35	111,1	0,25	107,8

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mahalliy bushuyev zotiga mansub buqalarning fiziologik va sperma mahsuldorlik ko'rsatkichlari xorijdan keltirilgan nasldor buqalarnikiga nisbatan yil fasllari bo'yicha salbiy o'zgarishi sezilarli darajada kamroqligi, hatto, bahor mavsumida sperma mahsuldorligining keskin ravishda ijobiy tomonga o'zgarishi aniqlandi.

Tajribadagi buqalarning yil fasllari bo'yicha sperma olish hajmini tahlil etganimizda eng ko'p miqdor bahor mavsumida, aniqrog'i bahorning birinchi oyida, eng kam miqdor esa yoz mavsumida kuzatildi. Bu boradagi o'zgarishlarni zotlar kesimidagi o'zgarishlar miqdorini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (5-jadval).

5-jadval

Tajribadagi buqalardan olingan sperma mahsulotining eng ko'p (bahor) va eng kam (yoz) mavsumlaridagi farqi (2022-2024 yy.)

Zotlar	Sperma hajmi		Sperma konsentratsiyasi	
	kamayish miqdori, ml	%	kamayish miqdori, mlrd/ml	%
Bushuyev	-12,7±1,1	11,9	-0,10±1,5	7,7
Golshtin	-37,6±1,7	32,0	-0,31±1,8	25,5
Angler	-13,8±1,5	13,6	-0,20±1,1	15,4
Shvits	-36,5±1,5	33,3	-0,20±1,5	16,7
Simmental	-39,3±1,83	33,3	-0,10±1,9	9,1

5-jadval ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, yozning issiq davrida urug' mahsuldorlik shvits, simmental, golstin, angler zotli buqalarda mos ravishda 33,3-13,6% ga, bushuv zotli buqalarda esa 11,9% ga kamayishi aniqlandi.

Sperma sifati nasldor buqalar sperma mahsuldorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi, shuning uchun, olingan sperma sifati bo'yicha zot xususiyatlarini aniqlash, nasldor buqalardan sperma olishda ma'lum bir zotga mansub nasldor buqalarning O'zbekiston sharoitida bir-biridan farqlanishi, ya'ni, zot xususiyatlari, ulardan sperma olishni rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bu boradagi tadqiqotlarimiz natijalari quyidagi 6-jadvalda aks ettirilgan bo'lib, jami 4 yil davomida o'rtacha 1 boshdan golshtin zotli buqalarda 1601,8 ml, eng kam miqdor esa angler zotli buqalarda 1352,4 ml.ni tashkil etgan. Bushuev zotli buqalarda esa bu ko'rsatkich 1426,8 ml.ni tashkil etgan. 4 yil davomida o'rtacha yillik mahsuldorlik bushuev zotli buqalarda 356,7 ml.ni tashkil etib, faqat angler zotli buqalardan ustun, golshtin, shvits, simmental zotli buqalardan esa pastroq o'rinlarni egallaydi (6-jadval).

6-jadval


Tajribadagi nasldor buqalarning yosh davrlari bo'yicha sperma mahsuldorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Zotlar	Yosh davrlari			
		III - IV	IV. V	V- VI	VI- VII
O'rtacha 1 boshdan jami sperma, ml	Bushuyev	350,0±0,26	395,2±0,21	374,4±0,28	307,2±0,30
	Golshtin	451,0±0,14	481,6±0,16	410,8±0,19	258,4±0,14
	Angler	360,0±0,21	405,6±0,14	336,1±0,22	250,8±0,25
	Shvits	364,1±0,18	405,0±0,20	374,4±0,18	316,8±0,13
	Simmental	421,2±0,20	459,2±0,18	375±0,16	316,8±0,14

6-jadval davomi

O'rtacha konsentratsiyasi, mlrd. ml	Bushuyev	1,3±0,025	1,35±0,032	1,28±0,035	1,19±0,045
	Golshtin	1,08±0,077	1,22±0,052	1,12±0,034	0,84±0,070
	Angler	1,2±0,052	1,30±0,048	1,26±0,028	1,07±0,036
	Shvits	1,10±0,045	1,32±0,028	1,22±0,028	0,96±0,072
	Simmental	1,06±0,056	1,32±0,036	1,22±0,045	0,86±0,027
Yaroqsizga chiqarilgan sperma ulushi, %	Bushuyev	21,22	18,31	20,49	22,86
	Golshtin	26,20	22,60	25,30	28,44
	Angler	22,27	19,21	21,51	24,46
	Shvits	21,75	18,76	21,00	23,80
	Simmental	22,53	19,44	21,76	25,6
Spermaning umumiy xarakatchanligi, ball	Bushuyev	8,1±0,26	9,2±0,25	9,0±0,22	7,4±0,26
	Golshtin	8,1±0,32	9,2±0,24	8,9±0,12	7,0±0,22
	Angler	8,0±0,22	8,7±0,19	8,6±0,18	7,1±0,23
	Shvits	8,0±0,32	8,8±0,33	8,6±0,25	7,0±0,21
	Simmental	8,0±0,16	8,7±0,18	8,5±0,26	7,0±0,21
O'rtaca 1 boshdan tayyorlangan spermadoza, ming ta	Bushuyev	29,5±21,3	31,5±26,8	32,5±22,8	30,1±26,8
	Golshtin	27,2±0,2	29,1±24,1	27,4±16,8	26,0±17,1
	Angler	28,6±10,2	30,1±17,8	29,8±9,8	29,2±14,1
	Shvits	26,1±10,4	36,1±9,8	30,07±13,5	18,5±11,8
	Simmental	28,8±19,5	38,6±15,7	29,8±16,5	18,4±22,8
Spermaning eritilgandan 1 soatdan keyingi yashovchanligi, %	Bushuyev	47,4	43,8	42,5	41,4
	Golshtin	43,8	44,6	34,5	33,8
	Angler	44,3	46,2	41,0	39,3
	Shvits	45,2	44,9	41,3	43,2
	Simmental	43,8	44,6	34,5	40,8
Spermaning eritilgandan 5 soatdan keyingi yashovchanligi, %	Bushuyev	18,4	18,9	12,3	8,4
	Golshtin	8,3	9,5	8,3	7,6
	Angler	11,4	13,3	8,4	7,9
	Shvits	12,7	12,0	9,7	8,1
	Simmental	8,3	9,5	8,3	7,7

Tadqiqotlarimiz natijasida aniqlandiki, o'rtacha bir boshdan jami sperma olish yosh davrlari bo'yicha 4 yoshlik davrida barcha buqalarda maksimal sperma mahsuldorlik namoyon bo'lgan va 3-7 yosh davrlarida to'rt ysharligidagiga nisbatan bushuyev buqalarida 42,8, golshtin zotli buqalarda 45,2 ml.ga, shvits zotli buqalarda 47,3 ml.ga, simmental zotli buqalarda 104,4 ml.ga va angler zotli buqalarda 109,2 ml.ga kamaygan va quyidagicha tendensiya kuzatildi (1-rasm).




1-rasm. Yosh davrlari bo'yicha sperma hajmining o'zgarishi

7-jadval

O'rtacha bir boshidan olingan jami sperma hajmi to'g'risi

Zotlar	Jami 4 yil davomida o'rtacha bir boshdan sperma, ml	Busheuv zotli buqalar boshqalariga nisbatan, ml	4 yil davomida o'rtacha bir boshdan bir yilda, ml	Busheuv zotli buqalar boshqalariga nisbatan,	
				ml	%
Bushuev	1426,8±22,8	-	356,7±0,32	-	100
Golstin	1601,8±26,3	-175,0	400,45±0,45	-43,75	89
Angler	1352,4±19,4	74,4	338,1±0,65	18,6	106
Shvits	1460,2±25,1	-33,4	365,05±0,20	-8,35	98
Simmental	1572,2±26,9	-145,4	393,05±0,22	-36,35	91

Xuddi shunday, 1 ml spermadagi spermiylar konsentratsiyasining buqalar yoshiga bog'liq holda 3-7 yosh davrlari oralig'ida o'zgarishi golstin zotli buqalarda 0,24 mlrd, angler zotli buqalarda 0,13, bushuev buqalarida 0,11, shvits zotli buqalarda 0,14 va simmental zotli buqalarda 0,2 mlrd donaga kamaygan va quyidagicha tendensiya kuzatilgan (2-rasm):



2-rasm. Yosh davrlari sperma konsentratsiyasining o'zgarishi

Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turiptiki, bushuyev va angler zotli buqalarda 1 ml spermadagi spermiylar konsentratsiyasining yoshga bog'liq holda o'zgarishi nisbatan barqaror holatda kechgan bo'lib, bu ularning issiq iqlim sharoitiga boshqa zotli buqalarga nisbatan mosroq ekanligi bilan izohlanadi (8-jadval).

8-jadval

Xo'jalik foydalanish davri davomida spermaning o'rtacha konsentratsiyasi

Zotlar	4 yi davomida o'rtacha yillik konsentratsiya, mlrd/ml	Bushuyev zotiga nisbatan,	
		+,-	%
Bushuyev	1,2	-	-
Golshtin	1,1	0,115	110,8
Angler	1,3	-0,128	81,5
Shvits	1,2	0,030	113,7
Simmental	1,1	0,065	103,1

Yosh davrlari bo'yicha spermaning yaroqsizga chiqarilgan ulushi esa golshtin zotli buqalarda 3-7 yosh davrlari oralig'ida 2,2% ga, angler zotli buqalarda 2,2%, bushuyev buqalarida 1,6%, shvits zotli buqalarda 2,5% va simmental zotli buqalarda 3,7% ga ko'payib, 3-rasmdagi diagrammada ifoda etilgan. Nasldor buqalarning barchasida 4 yoshlik davrida yaroqsizga chiqarilgan sperma ulushi yil davomida maksimal darajada kamaygan bo'lib, keyinchalik osha boshlagan va 6 yoshlik davrida 25% gacha ko'paygan.



3-rasm. Yosh davriari yaroqsizga chiqarilgan sperma ulushining ortib borishi

Ammo, bushuyev zotli buqalarda bu ko'rsatkich, boshqa xorijiy zotlarga nisbatan 2,0% dan kamroqqa, ya'ni, 1,6% ga ko'payganligi, bu jarayonda keskin o'zgarishlar sodir bo'lmasdan nisbatan barqaror kechganligi ularning mahalliy iqlim sharoitiga mosligidan dalolatdir (9-jadval).


9-jadval

Zotlar bo'yicha 4 yil davomida yaroqsizga chiqarilgan sperma ulushi

Zotlar	4 yil davomida o'rtacha bir boshdan yaroqsizga chiqarilgan sperma ulushi, %	Bushuyev zotiga nisbatan, +,-
Bushuyev	21	-
Golshtin	26	4,9
Angler	22	1,1
Shvits	21	0,6
Simmental	22	1,6

Spermaning umumiy harakatchanligining ball shkalasidagi yosh davrlari bo'yicha o'zgarishini tahlil etilganda, ularning 4 yasharlikdagi maksimal ko'rsatkichdan 6 yasharligida golshtin va angler zotli buqalarda 1,1 ballga, angler zotli buqalarda 0,9, Shvits zotli buqalarda va simmental zotli buqalarda 1,0 ball va bushuyev zotli buqalarda esa atigi 0,7 ballga pasayish kuzatildi.

4-rasmdagi diagrammadan ko'rinib turiptiki, bushuyev va angler zotli buqalar spermasining sifati ularning 6 yoshlik davrigacha nisbatan barqaror saqlanib qolgan holda, bu boradagi keskin pasayish Simmental zotli buqalarda 5 yoshdan, golshtin va shvits zotlarida 4 yoshdan keyin oq kuzatildi. Bu ularning mahalliy iqlim sharoitiga chidamlilik darajasi pastligidan dalolat beradi.



4-rasm. Yosh davrlari boyicha sperma harakatchanligining o'zgarishi

4 yil davomida olingan yillik o'rtacha spermodozalar soni bushuev zotli buqalardan ularning spermiylar konsentrasiyasi nisbatan barqaror saqlanishi va yaroqsizga chiqarilgan sperma ulaushi kamligiga bog'liq holda golshtin zotli buqalardan 3,5 ming doza, shvits buqalaridan 3,2 ming, simmental buqalaridan 1,5 va angler zotli buqalardan 0,3 ming doza ko'proq sperma olindi.

Sperma olish maqsadida foydalanilganda asosiy poda tarkibida saqlanish darajasi bo'yicha, so'zsiz mahalliy bushuev zotiga mansub nasldor buqalar ustunlikka ega ekanligi aniqlandi. Chunki, 7 yoshlik davrgacha golshtin va simmental zotli buqalardan 50,0%, angler va shvits zotli buqalardan 66,7% hamda bushuev zotli buqalardan 83,0% i asosiy poda tarkibida saqlanib qolganligi aniqlandi (10-jadval).

10-jadval

Tajribadagi buqalarning asosiy podada saqlanish darajasi, bosh

Zotlar	Yosh darlari bo'yicha asosiy podada saqlanishi, bosh				7 yoshgacha asosiy podada saqlanish darajasi, %
	3-4	4-5	5-6	6-7	
Bushuev	6	6	6	5	83,3
Golshtin	6	6	5	3	50,0
Angler	6	6	5	4	66,7
Shvits	6	6	5	4	66,7
Simmental	6	6	5	3	50,0

Sperma olishda foydalaniladigan nasldor-spermodonor buqalarning sperma mahsuldorligi haqida xulosa chiqarishda yakuniy baho beriladigan ko'rsatkich bu ularning urug'lantirish darajasi, ya'ni, ularning spermasidan foydalanib sigir va tanalarni urug'lantirilganda har 100 bosh urug'ochi moldan qanchasi samarali urug'lanishini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Bunda albatta, buqa spermasidan boshqa barcha: sigirlarning fiziologik holati, urug'lantiruvchi texnikning malakasi, tajribasi

va boshqa ta'sir etuvchi omillar, shart-sharoitlar ijobiy xarakterda bo'lgan holat nazarda tutiladi.

Tajribadagi buqalarni urug'lantirish darajasini aniqlashda, barcha zotga mansub buqalar spermasi hammasiga bir xil, ilgari urug'langan va 1 marta buzoqlaganligi aniqlangan, 250 boshdan sigirga ishlatildi. Urug'lantirish rektotservikal usulda amalga oshirilib, har bir sigirga 2 doza sperma sarflandi, ya'ni, ertalab va kechqurun urug'lantirildi.

Tajribadagi barcha buqalarning urug'lantirish darajasi ularning 3 yoshlik davriga eng yuqori darajada borib, 4 yoshligidan boshlab golshtin va simmental zotlarida, 5 yoshlik davrida shvits va angler zotli buqalarda pasaya boshlagan (11-jadval).

11-jadval

Tajribadagi buqalarning yosh davrlari bo'yicha urug'lantirish darajalarining o'zgarishi

Zot	Yosh davrlari, yil											
	3-4			4-5			5-6			6-7		
	Urug'lantirildi, bosh	shundan urug'landi		Urug'lantirildi, bosh	shundan urug'landi		Urug'lantirildi, bosh	shundan urug'landi		Urug'lantirildi, bosh	shundan urug'landi	
		bosh	%									
Golshtin	250	181	72.4	250	195	78.0	250	195	78.0	250	173	69.2
Bushuyev	250	198	79.0	250	205	82.0	250	216	86.4	250	212	84.8
Angler	250	192	76.8	250	202	80.8	250	198	79.2	250	188	75.2
Shvits	250	189	75.7	250	192	76.8	250	198	79.2	250	185	74.0
Simmental	250	195	77.8	250	199	79.6	250	197	78.8	250	162	64.8

Mahalliy sharoitlarga nisbatan moslashgan bushuyev zotli buqalarda esa urug'lantirish darajasi 5 yoshlik davriga qadar barqaror o'sgan va 6-osh davrida, boshqa zotlarga nisbatan unchalik keskin bo'lmagan holda pasaya boshlagan.

Bu holat xorijdan keltirilgan buqalar mahalliy sharoitlarga moslashish davrida adaptiv stress ostida turli fiziologik muammolar paydo bo'lishi oqibatida ularning sperma mahsuldorligini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining yomonlashishi oqibatida sodir bo'lishi aniqlandi.

